



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 25-sentabr

488-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Osiyo taraqqiyot banki va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida infeksiyalarga qarshi kurashish loyihasining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 5-sentyabrdagi PQ-310-sonli, shu haqidagi viloyat hokimining 2024-yil 23-sentyabrdagi 438-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosi haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Osiyo taraqqiyot banki va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida infeksiyalarga qarshi kurashish loyihasining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 5-sentyabrdagi PQ-310-sonli, shu haqidagi viloyat hokimining 2024-yil 23-sentyabrdagi 438-6-0-Q/24-sonli qarorlarini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### Q A R O R   Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Osiyo taraqqiyot banki va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida infeksiyalarga qarshi kurashish loyihasining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 5-sentyabrdagi PQ-310-sonli, shu haqidagi viloyat hokimining 2024-yil 23-sentyabrdagi 438-6-0-Q/24-sonli qarorlari rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:  
quyidagilar:

Osiyo taraqqiyot banki (keyingi o‘rinlarda - OTB) bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida “O‘zbekiston Respublikasida koronavirus COVID-19 infeksiyasiga qarshi shoshilinch choralarni ko‘rish” loyihasini amalga oshirish uchun 10 yillik imtiyozli davr bilan 40 yil muddatga jami 100 million AQSH dollari miqdorida imtiyozli qarz ajratilishi bo‘yicha kelishuvga erishilganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va OTB o‘rtasida 2020-yil 31-dekabrda qarz bitimi imzolanganligi;

Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki (keyingi o‘rinlarda - OIIB) bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida “O‘zbekiston Respublikasida koronavirus COVID-19 infeksiyasiga qarshi shoshilinch choralarni ko‘rish” loyihasini (keyingi o‘rinlarda - loyiha) amalga oshirish uchun 10 yillik imtiyozli davr bilan 30 yil muddatga jami 100 million AQSH dollari miqdorida imtiyozli qarz ajratilishi bo‘yicha kelishuvga erishilganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va OIIB o‘rtasida 2020-yil 31-dekabrda qarz bitimi imzolanganligi;

loyihaning umumiy qiymati 200 million AQSH dollari miqdoriga teng texnik-iqtisodiy asoslanishi ishlab chiqilganligi hamda vakolatli davlat organlarida ekspertizadan o'tkazilganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

belgilanishicha:

Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi loyihani o'z vaqtida amalga oshirish va muvofiqlashtirish, shuningdek, ajratilgan qarzdin maqsadli va samarali foydalanish bo'yicha mas'ul ijro etuvchi organ hisoblanishi;

OTB va OIIB ajratgan qarzni qaytarish, shu jumladan, qo'shimcha haq va foizlar, boshqa to'lovlar bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobidan qoplanishi;

bunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Loyiha xizmatlari boshqarmasi (UNOPS) loyiha doirasida texnika va jihozlarni xarid qilish, muassasalarda qurilish-ta'mirlash ishlarini, kadrlarni o'qitish va malakasini oshirish hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarini joriy etish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni amalga oshiruvchi tashkilot hisoblanishi inobatga olinganligi;

quyidagilar:

OTB va OIIB bilan moliyaviy hamkorlikda "O'zbekiston Respublikasida koronavirus COVID-19 infeksiyasiga qarshi shoshilinch choralarni ko'rish" loyihasi texnik-iqtisodiy hisob-kitobining asosiy texnik-iqtisodiy parametrlari 1-ilovaga muvofiq;

OTB va OIIB bilan moliyaviy hamkorlikda "O'zbekiston Respublikasida koronavirus COVID-19 infeksiyasiga qarshi shoshilinch choralarni ko'rish" loyihasining maqsadli ko'rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 3-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev) hamda tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi (X.Hudoyberdiyev) tegishli tashkilot va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentyabrdagi PQ-310-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**